

BIOLOGIK TA'LIM SAMRADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Mamlakat Umarova Mirzaliyvna
TDSI akademik litsey

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari, biologiya darslarida o'quvchilarning individual faoliyatini tashkil etish, biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish to'g'risida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: o'qitish samaradorligi, individual faoliyat, pedagogik texnologiyalar, metodik daraja.

Kirish:

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish masalasi biologiyani o'qitish metodikasi fanining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajadagi motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ongli ehtiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy me'yorlarga mos xulqning paydo bo'lishi tushuniladi. Biologiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir qilish va qulay ijtimoiy-psixologik sharoitni vujudga keltirishi o'qituvchi tarafidan foydalanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ma'lumki, axborotlar globallashtirish muhitida ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini orttirish jiddiy masala hisoblanadi. Tabiiy fanlar, shu jumladan, biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta'limi mohiyatining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida o'quvchilarning o'quv motivlarini takomillashtirish tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil qilish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini tashkil qilish mumkin.

Biologiyani o'qitishda xususiy metodik darajada qo'llaniladigan didaktik o'yin, modulli, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining imkoniyatlari va ahamiyatini anglagan tarzda axborot texnologiyalarining axborot, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlari jadval tarzida berildi.

Natijalar:

Darhaqiqat, biologiya darslarida rol o'ynash o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantiradi, masalalarni jamoaviy hal qilish qobiliyatini takomillashtiradi, tezkor ravishda qarorlar qabul qiladi, amalga oshirilgan harakatlar oqibatlarini bashorat qiladi, tashabbuslarni rivojlantiradi va biologik, shuningdek tibbiy tushunchalar bilan ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

Ko'pincha, biologiyani o'qitishda nazariy bilimlarni ularni amaliy qo'llash bilan samarali birlashtirishga qaratilgan rol o'ynash va ishbilarmon o'yinlar ishlatiladi. Ushbu o'yinlarda, vaqt yetishmasligi, to'liq bo'lmagan ma'lumot va o'yinning boshqa ishtirokchilarining qarshiliklariga duch kelgan shaklda ishtirokchilarni muayyan qarorlarni qabul qilishga majbur qiladigan keskin, ziddiyatli vaziyat yaratiladi.

Muhokama:

Biologiyani o'qitishda qo'llaniladigan vositalar biologik ta'lim- tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, o'rganiladigan mavzu mohiyatiga muvofiq, o'qituvchi tarafidan mazkur jarayonning samaradorligini orttirish maqsadida foydalaniladi. Biologiya darslarida o'qituvchi o'rganiladigan mavzu mohiyatini to'la yoritadigan o'qitish vositalarini unga muvofiq esa, o'qitish metodlarini tanlaydi, shu asosda darsda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qiladi va boshqaradi.

Biologiya o'qituvchisining muhim vazifasi o'rganiladigan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda eng yuqori samara beradigan o'qitish vositalarini tanlashi, buning uchun o'qitish vositalarining yangi avlodining turlari, ular bilan ishlash metodikasini egallagan bo'lishi kerak.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogik texnologiyalar yordamida olib borilgan darslar an'anaviy usulda olib borilgan darslarga qaraganda ancha samaraliroq ekan. Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtirish maqsadida darslarda turli o'yinlardan foydalanish asosiy ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida darslarni tashkil qilish o'quvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini rivojlantiruvchi usullardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. -Toshkent: TDPU, 2004.
2. / . Azimov va boshqalar. Biologiya. Metodik qo'llanma. — T .:, A bu Ali ibn Sino nom idagi Tibbiyot nashriyoti. 2002.
3. Borzova Z. V.,. Biologiya bo'yicha didaktik materiallar: Uslubiy qo'llanma. / Z. V Borzova, A.M. Dagaev - M.: TC Sphere, 2005.
4. Bezux K.E. Biologiya darslarida o'quvchilar bilimlarini faollashtirishning o'ziga xos usullari // O'quv-uslubiy va ilmiy-ommabop gazeta. - M.: "1 sentyabr" nashriyoti , 2005.